



---

**TRANSLATION OF NATIONAL WORDS IN ARTISTIC WORKS  
TRANSLATION**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10116014>

**Nortoyeva Oghiloy Mahamataliyevna**

*Teacher of the Department of English Language and Literature of ADCHTI  
ugiloynortoeva@gmail.com, unortoeva@mail.ru*

**ABSTRACT**

When translating literary works from one language to another, it is a great responsibility of the translator to know the culture, history, customs, and lifestyle of the people who speak these languages and to introduce them to the representatives of the other people. These problems and types of literary translation are covered in this thesis.

**Key words**

translation study, national spirit, color, calquing, transliteration, descriptive translation, estimated translation, transformation, connotation.

**BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA MILLIY XOS SO‘ZLARNING  
BERILISHI**

**Nortoyeva O‘g‘iloy Mahamataliyevna**

*ADCHTI Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi ugiloynortoeva@gmail.com ,  
unortoeva@mail.ru*

**ANNOTATSIYA**

Adabiy asarlarni u tildan bu tilga o‘g‘irishda ushbu tillarda gapiruvchi xalqlarning madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, turmush tarzi bilan tanish bo‘lish va ularni boshqa xalq vakillariga tanishtirish tarjimon zimmasidagi ulkan mas‘uliyat hisoblanadi. Ushbu tezisda shu muammolar va adabiy tarjima turlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**

tarjimashunoslik, milliy ruh, kolorit, kalkalash, transliteratsiya, tasviriy tarjima, taxminiy tarjima, transformatsion tarjima, konnotatsiya.

**АННОТАЦИЯ**

При переводе произведений с одного языка на другой на переводчика лежит большая ответственность знать культуру, историю, обычаи и образ жизни народов, говорящих на этих языках и знакомить представителям



---

других народов. Данный тезис посвящен этим проблемам и видам художественного перевода.

**Ключевые слова**

переводоведение, духовность нации, колорит, калькирование, транслитерация, описательный перевод, приближительный перевод, трансформация, коннотация.

Ma'lumki, biror bir millat yoki elat o'z "qobig'i" da rivoj topgan emas. Bo'lsa ham, bu dialektik qonuniyatga zid bo'lgan bo'lar edi. Hozirgi globallashuv davrida biror bir davlatni ijtimoiy, madaniy, siyosiy va adabiy aloqalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu aloqalarning amaliy jihatdan rivoj topib, takomillashuvida millat durdonalari bo'lgan badiiy tarjima asosiy rol o'ynaydi.

Mamlakatlar va ularda yashovchi xalqlarning turmush tarzi va hayotiga oid xususiyatlari (tabiiy sharoitlari, geografik joylashuvi, tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi, ilm-fanva san'ati, turmush tarzi) insonlar tilida aks etadi. Shu sababli, til har qanday xalq madaniyati aksidir, degan fikrni ilgari surish mumkin. Uning tarkibida til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi, alohida qismini ajratish mumkin bo'lgan so'zlar mavjud bo'lib, ular lisoniy birlik semantikasining madaniy komponenti deb nomlanadi. Ushbu birliklar milliy koloritni o'z ichiga oladi. Kolorit so'zi Milliy ensiklopediyada quyidagicha ta'riflanadi: italyanacha colorito, lotincha color – rang, bo'yoq – tasviriy san'at asarlari (ko'pincha rangtasvir) voqelikni real va ifodali tasvirlashda ranglarning o'zaro mutanosibli.

Shuningdek, kolorit biror narsaning o'ziga xos tomonlari majmuini ham anglatadi. Masalan, badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari (davr, milliylik va boshqalar) [5,142]

Tarjimashunoslik ilmidan ma'lumki, bir biridan yashash xududi, hayot tarzi, diniy e'tiqodi hamda til tuzilishi kabilar bilan farq qiladigan xalqlar adabiyotiga xos bo'lgan asarlar tarjimasida asosiy masala o'sha tilda asardagi milliylikni va voqelikni mazmuni va ta'sirchanligini yo'qotmagan holatda boshqa tilga berishdir. Voqealar, vaziyatlar, holatlarni tarjima qilishda, eng avvalo, ushbu voqeliklar matnda qanday o'rin egallashini tushunish kerak. Tarjimon asl ma'nosini o'quvchiga qanday yetkazishga harakat qilishi ham shunga bog'liq. Ayrim voqeliklar internasional hususiyat kasb etib ko'pincha tushuntirishga muhtoj emas. Badiiy asarlarda odatda boshqa odamlarning kundalik haqiqatlari talqin qilinadi. Ushbu so'zning tarjimasida o'quvchiga notanish yoki umuman tanish bo'lmagan so'zlar tasvirlangan narsani qiyinchiliksiz idrok etishga, bir vaqtning o'zida o'ziga xos "notanishlikni" ni his qilishga imkon beradigan taqdimotni talab qiladi, o'ziga hos xarakterga ega mahalliy yoki milliy kolorit ushbu hissiyotning real misolidir. Tarjima jarayonida voqelikni yetkazishda ikkita asosiy qiyinchilik mavjud: bular



voqelik bilan ifodalangan ob'ekt (referent) yo'qligi sababli tarjima tilida muvofiqlik (ekvivalent, analog) yo'qligi hamda sub'ekt ma'nosi (semantika) bilan birga zarurat, voqelik, rang (konnotatsiya)ni yetkazish masalalaridir.

Shuni ham e'tiborga olish zarurki, ba'zi voqeliklar tilda aniq izohlarga ega. Ko'p hollarda manba tilning berilgan birligi orqali ko'zda tutilgan tilning bir xil birligi tomonidan tarjima qilinadi. Bunday voqelikni bitta so'z yoki birikma bilan tarjima qilishda deyarli hech qanday qiyinchiliklar bo'lmaydi. Voqealar, vaziyatlarni eng keng tarqalgan usullari transliteratsiya yoki transkripsiya, kalkalash, tavsifiy tarjima, taxminiy tarjima va transformatsion tarjimalardir.

1. Kalkalash - chet tilidagi pealiyalarni uning tarkibiy qismlarini yordamida tarjima qilish, bunda morfemalarni yoki so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri leksik muvofiqlari bilan almashtirish yo'li bilan tarjima (masalan: brain drain-utechko mozgov(rus tilida)). Ushbu usul yuqoridagi kabi ayrim xil kamchiliklarga ega bo'lib lingvokulturologik birliklarni berish mumkin bo'lmaydi.

2. Transliteratsiya paytida til so'zining grafik shakli orqali, transkripsiya paytida esa uning tovush shakli orqali uzatiladi. Ushbu usullar xorijiy tilidagi shaxs otlarini, geografik nomlarni, turli xil kompaniyalar, firmalar, gazetalar, jurnallar va boshqalarni tarjimasi uchun ishlatiladi. Hozirgi vaqtda tarjimada transliteratsiya va transkripsiya texnikasi juda tez-tez qo'llaniladi, garchi chet tilidagi leksik birlikning tovush yoki alifbo ko'rinishini uzatish uning ma'nosini ochib bermasa ham, chet tilini bilmaydigan o'quvchiga bunday so'zlar tanish va (ma'lum izihlari berilganda) tushunarli bo'lib qoladi.

3. Tasviriy tarjima. Ushbu usulda tildagi realiyalar yoki tarjima qilinadigan leksik birliklarning muhim xususiyatlari kengaytirilgan iboralar yordamida ma'nolari ochib beriladi (masalan: landslide - ko'pchilik ovoz bilan saylovda g'alaba qozonish). Biroq, bu usul juda katta mehnat va harajat talab qilinadigan usul deb hisoblanadi.

4. Taxminiy tarjima. Tarjimaning bu metodida leksik birlikni ifodalaydigan eng yaqin muvofiqlikni topishdan iborat (masalan: nou-xau - tijorat sirlari). Tarjimaning ushbu usulini qo'llashda shuni esda tutish kerakki, ba'zi hollarda u tarjima qilinayotgan predmet yoki voqea nomining tabiati haqida noto'g'ri tasavvur berishi mumkin.

5. Transformatsion tarjima. Tarjimaning bu metodida tarjimon gapning sintaktik tuzilishini o'zgartirishi mumkin, leksik-grasmmatik tarjima transformatsiyasi qilinadi. Ya'ni so'z tarjimada boshqa leksik birlik bilan almashtiriladi.

Har bir xalq o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida dunyo xalqlari orasida o'ziga xos qarashlar tizimini shakllantirib borgan. Biror-bir asar tarjimasining qimmatini uning dunyo haqidagi tushunchamizni qay darajada boyitishi bilan



belgilanadi. Tarjimon oldida qiyin vazifa – xalqning milliy ma’naviyatini yetkazish turibdi. “Har bir millatning milliylikining siri uning kiyimi va oshxonasida emas, ta’bir joiz bo’lsa, tushunish uslubidadir”. Milliy tafakkurga oid ma’lumotlar va bilimlar o’quvchining dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, o’zini anglashiga yordam beradi.

Milliy koloritni badiiy asarda aks ettirish muammosi ko’plab yozuvchilar, tanqidchilar va adabiyotshunoslarni qiziqtirgan va hozirda ham qiziqtirib kelmoqda. Bu masala bo'yicha birinchi nazariy fikrlar rus yozuvchi va shoiri A.S.Pushkinga tegishli: "Faqat ma'lum millatlarga tegishli bo'lgan odatlar, e'tiqodlar, holatlarning qorong'uligi bor". Xalqaro tarjima hech qachon to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Har bir tilning o'ziga xos aylanmalari, o'ziga xos ritorik figuralari, o'z o'rganilgan iboralari bor, ularni tegishli so'zlar bilan boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydi. Rus tilshunosi V.G. Belinskiy tarjimonning vazifalarini belgilab, asl nusxaning o'ziga xosligini to'liq saqlashni muhumligini belgilan “Asl nusxaga yaqinlik harfni emas, balki ong ruhini etkazishdan iborat”, degan fikrni oldinga surgan. Har bir tilning o'ziga xos vositalari, xususiyatlari va xususiyatlari borki, tarjimada boshqa tasvir yoki iborani to'g'ri etkazish uchun ba'zan ularni butunlay o'zgartirishi kerak. Tegishli tasvir, shuningdek, tegishli ibora har doim ham so'zlarning aniq mos kelishidan iborat emas: tarjima qilingan iboraning ichki qurilishi asl nusxaning ichki sifatiga mos kelishi kerak.

Tilshunos asar mazmunini uning shakli bilan chambarchas bog'lab, shunday yozgan edi: “Haqiqiy romanlar, real hikoyalar muhitda mahalliy bo'yoqsiz, qahramonlardagi milliy elementsiz bo'lolmaydi. Mahalliy kolorit va milliy urf-odatlar, fikrlar, personajlarning milliylik bo'lmasa, hech qanday voqelik bo'lmaydi - harakatlarda ishonchlik, personajlarda aniqlik yo'q”.

Shunday qilib, milliy koloritni ko'chirish tarjima amaliyotidagi eng muhim masalalardan biridir. Bunday holda, doimo quyidagi qoidalarni hisobga olishingiz kerak: shaklning mazmun bilan yaqin aloqasi; realiyalar ruhini qayta yaratishda til vositalarining (parallellarning) muhim roli; so'zma-so'z tarjimaning samarasizligi; o'zboshimchalik bilan qoldirish yoki qo'shimchalarga yo'l qo'yilmasligi. Shu bilan birga, o'zga millat vakili milliy asarning she'riy jozibasini idrok eta olishi uchun uning mazmuninigina emas, balki milliy ruh, lirik kayfiyatni ham yetkazish zarur, shunda tinglovchida tegishli assotsiatsiyalar bo'ladi. Milliy koloritning tashqi belgilari va milliy til bilan bog'liq bo'lgan ichki o'ziga xosliklarini farqlash kerak. Tashqi belgilar - milliy hayotning ko'rinish va belgilari: xalqning milliy-tarixiy hayotining xususiyatlari, uning madaniyati, xarakteri, urf-odatlari, axloqi, an'analari, odatlari, his-tuyg'ulari, qarashlari va boshqalar. Ichki o'ziga xoslik milliy til bilan bog'liq. Tilga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar tarjimada, ikki til tizimini solishtirishda eng aniq namoyon bo'ladi. Tarjimon muqarrar ravishda duch



keladigan qiyinchiliklar, agar u ushbu tillarning barcha qonuniyatlarini bilsagina hal qilinadi. Demak, muayyan asarning lisoniy xususiyatlari milliy koloritning muhim jihatlaridan biri bo'lib, puxta o'rganishni talab etadi. Milliy rangning tashqi belgilari va uning ichki o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz ushbu kontseptsiyaning o'zini, uning barcha tarkibiy qismlarini ikki toifaga ajratgan holda konkretlashtirishni zarur deb hisoblaymiz. Birinchi turkumga milliy turmush tarziga oid so'z va tushunchalar kiritilishi kerak. Bular toponimlar, onomastika, oila munosabatlarini bildiruvchi so'z-realliklar, xalq va diniy marosimlar, davr belgilarini, milliy odob-axloqni, tashqi qiyofasini, xatti-harakatlarini va boshqalarni aks ettiruvchi so'zlardir.

Demak, milliy o'ziga xoslik asarda aks etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalarning tub zaminida yotadi, umuman badiiy borliqning ro'yobga chiqishiga zamin bo'ladi. Tarjimada esa huddi ana shu badiiy borliq asl nusxadagidek muqobil gavdalanishi zarur. Aks xolda, tarjima asl nusxadagi turmush tafsilotlarini to'g'ri gavdalanitirgan holda, deylik, qahramonlarning hatti-harakatlari "o'xshamay" qolishi, joy tasviri bilan obrazlar ruhiyati o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'lishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi. Toshkent. Adolat. 2003.
2. Muhammadaliyeva, N. U. (2022). The Uniqueness of the Expression of National Peculiarities in the Novel "The Days Gone By". Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 82-84.
3. Salomov ' . T. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. O'qituvchi.
4. Salomov G'. Til va tarjima. Toshkent.: Fan. 1966. - 242 bet.
5. G'afurov I. Tarjima nazariyasi va tarjimonlik mutahassisligiga kirish. Toshkent. 2007.-231 b
6. Алексеев И. С. Введение в переводоведение: 3-е изд. Москва, 2008. - 368-стр.
7. Бархударов Л.С. Язык и перевод. Москва: Международные отношения, 1975.
8. Виноградов В. С. Перевод: общие и лексические вопросы:КДУ, 2004.
9. Влахов С., Флорин С., Непереводимое в перевода. Монография. - Москва: 1996.
10. Гачиладзе Г. Р. Художественный перевод и литературные взаимосвязи - М.: „Советский писатель“, -1980-254 с.



11. Коновалова Э. К. Асл матнни таржима килишда миллий рангни курсатиш кийинлиги/ I халқаро материаллар. илмий конф. Санкт-Петербург, 1012 йил.
12. Нортоева Угилой Махаматалиевна (2023). ПРИЕМЫ ВОССОЗДАНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО КОЛОРИТА В ПЕРЕВОДЕ (НА МАТЕРИАЛЕ ПЕРЕВОДА РОМАНА ДЖЕЙНА ОСТИНА «ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ»). European journal of literature and linguistics, (1), 49-54.
13. Розентал Д. Е. Словарь-справочник лингвистических терминов. Москва. 1976.-543с.
14. Федорова А.Б. Основы общей теории перевода. 1983.- 400с.
15. Худайбергенова З, Усмонова Ш., Таржиманинг лингвомаданий масалалари.- Т.: 2016. – 111б .